



## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONSEPTUAL METAFORA

**Djalilova Zarnigor Baxadirovna**

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi f.f.f.n(PhD);

**Umarova Mohlaroyim Sirojiddinovna**

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Barchamizga ma'lumki, nutq jarayonida metaforalardan unumli foydalanish o'y-fikrlarimizni yanada boyitib, ta'sirchan, jozibali qiladi. So'zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik iqtidorini namoyon etadi. Metaforlarning shunday bir ko'rinishi borki u nafaqat tilning uslubiy shakli, balki bu fikrning o'zidir ya'ni inson tafakkurida beixtiyor tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar to'plamidir. Bu konseptual metaforadir. U ham badiiy adabiyotda ma'lum janrlarni shakllantiruvchi, shoir-u yozuvchilarning eng muhim badiiy vositasidir. Shuning uchun ham u oddiy metaforalardan o'ziga xos jihatni bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada konseptual metaforlarda konseptning o'rni, uning turlari va ishlatilish o'rni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** metafora, konsept, konseptual metafora, strukturaviy, orientatsion, oriental metafora.

Nutqda o'z o'y-qarashlarimizni bayon etish uchun tildagi barcha birliklar (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) dan foydalanamiz. Leksik birliklar ya'ni, so'zlarni tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganish, so'zlarni nutqdan tashqaridagi o'z ma'nosi bilan birga ularni nutqda ifodalagan uslubiy ma'nolarini ham o'rganish muhimligini ko'rsatadi. So'zlarni o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliliginini ta'minlash uchun tunganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'noda ishlatiladi va o'ziga xos bo'yoq dorlik kasb etadi. Ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylilik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish metaforani yuzaga keltirdi.<sup>1</sup>

Nutqimizda ko'p qo'llaniladigan ma'no ko'chish usuli barchamizga ma'lumki bu metaforadir. Metafora narsa yoki voqeа hodisalar o'rta sidagi aloqadorlik asosida ko'chish usulidir. Metafora aslida yunoncha so'zdan olingan bo'lib 2 narsaning o'zaro o'xshashlik asosida ma'no ko'chishidir<sup>2</sup>. Masalan: fan cho'qqisi, yurtimiz quyoshi, dalaning etagi....

Misol uchun, devorning qulog'i va odamning qulog'i, bunda ikkita predmet o'zaro o'xshashlik asosida ma'no ko'chayapti ya'ni tilshunoslikda bular bir birini shu jihatdan aloqadorlik hosil qilyapti.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Mahmudov.N., Odilov.Y., Ziyodullayeva.G., O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassaslarini o'quvchilar uchun darslik.-T,2018, 79-b.

<sup>2</sup> Nurmonov.A. , Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T: Ilm ziyo., 2013y,190-b

<sup>3</sup> Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.



Zamonaviy tilshunoslikda esa rivojlanishlar va izlanishlar olib borishlar natijasida konseptual metafora atamasi namoyon bo'la boshladi. Konseptual degani "tushuncha", "tasavvur", "bilish" deganidir. Kontseptual metafora kognitiv tilshunoslikdagi muhim atamalardan biri hisoblanadi. Bu turli xil sohalarga tegishli bo'lgan bir nechta tushunchalar (kontseptual tuzilmalar) o'rtasida kognitiv aloqalarni yoki xaritalarni o'rnatish jarayonini anglatadi.<sup>4</sup> Metafora "bir narsani boshqa bir narsa asosida yoki vositasida tushunish" deb ta'kidalagan Lakoff va M. Jonson.<sup>5</sup>

Dastlab tilshunoslikda metaforalar grammatik, leksik va semantik jihatdan o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslik esa metaforaning tafakkur bilan bog'liq tomonini diqqat markaziga qo'ydi. Shu asosda zamonaviy tilshunoslikda yangi tushuncha "konseptual metafora" tushunchasi paydo bo'ldi.

I.A.Galperin nazariyasiga murojaat qiladigan bo'lsaqk, u "ikki xil hodisa (narsa, g'oya, harakat) bir vaqtning o'zida, bir ob'ektning o'ziga xos xususiyatlarining bir qismini yoki barchasini ikkinchisiga yuklash. Bunday yuklash, odatda, metafora hosil qiluvchi ikkita mos keladigan obyektda umumiy xususiyatga ega bo'lgan ba'zi xususiyatlarni ifodalaganda yuzaga keladi".<sup>6</sup>

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek konseptual metafora tushunchasi dastlab J.Lakoff va M.Jonsonlar asarlarida aks etdi. Ularning tadqiqotlarida shunday deyiladi: " Inson muloqotida bunday tushunchalarning tez-tez uchrab turishi mazkur lingvistik hodisani ma'lum tizim sifatida o'rganishni taqazo etadi. Buning natijasida ma'lum bir guruhga o'zaro birika oladigan metaforalarni aniqlab ularni konseptual metaforalar deb nomlaymiz".<sup>7</sup> Bundan shuni tushunamizki, konseptual metafora so'zning asosiy ma'nosi bilan va ko'p hollarda ikkita semantik maydon o'rtasidagi tushunilgan munosabatni ifodalaydi. Taniqli tilshunos-nasr yozuvchisi A.G. Pol metaforani quyidagicha ta'riflagan: «Metafora-hali etarli nomlarga ega bo'limgan tasvirlar majmuasini belgilashning eng muhim vositalaridan biri . Metafora-bu muqarrar ravishda inson tabiatidan kelib chiqadigan narsa va u nafaqat she'riyat tilida, balki, odamlarning kundalik nutqida, xohlagancha, majoziy ifodalar va rang -barang epitetlarga murojaat qiladi».<sup>8</sup>

M.Blackning "Metaforaning o'zaro ta'sir nazariyasi" da metafora shunchaki til bezagi emas, balki atrofimizdagi borliqni tushunish uchun zarur vosita ekanligini aytib o'tadi.

<sup>4</sup> Файзиева, А.А., 2022. Metaforalar tarjimasining lingvomadaniy МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(2)

<sup>5</sup> Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: Univ. of Chicago Press, 1980 (2008).

<sup>6</sup> I.A.Galperin. Stylistics. Page 13

<sup>7</sup> Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: Univ. of Chicago Press, 1980 (2008).

<sup>8</sup> A.G. Pol " Metaphors in lexicology" Cambridge: Cambridge University Press, 1993.



Blek metaforaning o'zi ikki tushuncha o'rtasida mutanosiblikni keltirib chiqarishni va tushunchalarga ma'lum bir o'ziga xoslikni berishini alohida aytib o'tgan. Metafora muallifning badiiy olamiga o'ziga xos ta'sirchanlik beradi, fikrlarni majoziy tushunchalar yordamida yetkazadi va shu bilan yashirinib yotgan mavhumlikni jonlantiradi va uni o'quvchiga yetkazadi. Muallif asarlarida yozuvchining o'zini chuqur o'yga soladigan ko'plab muammolarni talqin qiladi. O'quvchi bu muammolarning yechimini bevosita matndan izlay boshlaydi va bunda metafora yetakchi rol o'ynaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, kognitiv semantikaga ko'ra metafora endilikda adabiyot va she'riyatda shunchaki oddiy bezak yoki jonlantirish sifatida chegaralanmaydigan bo'ldi. Kognitiv tilshunoslikdagi konseptual metafora atamasini yanada teran anglash uchun oddiy metaforadan farqlanishini anglashimiz kerak.

Masalan, Zaynab tulki (Zaynab is fox). Bu yerda ayol tulkiga majozan o'xshatilyapti. Ammo sintaktik tahlil jihatidan ular turli xil manoi kasb etadigan tushunchalardir. Xususiyatlarning o'xhashligi bu gapda konseptuallikni keltirib chiqgagan.

Konseptual metaforada esa o'xhatilayotgan narsa yoki buyumning bir emas bir qancha xususiyatlari ko'chishi kerak. Albatta bu jarayonda insonning fikrashi va tushuncha doirasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Ularning bir-biridan farqlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

ODDIY METAFORA	KONSEPTUAL METAFORA
<p><b>So'zlarning ahamiyati, tilshunoslikdagi voqeilik</b></p> <p>Masalan: <u>sochlardagi qor uning ayanchli tarixidan darak berardi</u></p>	<p><b>Konseptlarning ya,ni ahamiyati, konseptual voqeilik</b></p> <p><i>Bahs jangida uni mag'lub qilish mushkul edi</i></p>
<p><b>Ta'sirchanlik va badiiy bo'yoqdorlik maqsadida</b></p> <p><u>Uning tosh qalbini hech narsa eritolmasdi</u></p>	<p><b>Ba'zi bir konseptlarni (tushunchalarni) yanada yaxshiroq tushunish uchun</b></p> <p><i>Vaqt bu pul. Uni kerakli narsaga sarflang</i></p>
<p><b>Ikkita asosning (narsa,voqe, hodisaning) o'zaro bog'liqligi</b></p> <p><i>Hayot daraxtidagi yaproqlar asta sekinlik bilan uzilayotir.</i></p>	<p><b>Insoniyat tajribasida asosoda vujudga kelishlik</b></p> <p><i>G'azab olovi uning yuragida yanada alanga oldi</i></p>



<b>Odatda shoirlar va notiqlar tomonidan ko'pincha foydalaniladi</b>	<b>Odatda kundalik hayotda oddiy odamlar tomonidan ishlataladi</b>
So'zning ko'chma ma'nosi	O'ylash, harakat va maqsadlar jarayoni mahsuli

Anglaganimizdek, konseptual metafora metafora bu shunchaki tilshunoslikdagi asosiy nazariya emas, balki insonning o'y va fikrlashi uning tushunchasi bilan bo'qliq ekanligini isbotladi. Kognitiv metafora asoschilari hisoblanmish J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan ilgari surilgan metaforalar to'g'risidagi tadqiqot zamonaviy tilshunoslikda asosiy tamal toshi vazifasini o'tadi Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, antropotsentrik(zamonaviy) tilshunoslikda konseptual metafora atamasi oddiy metafora ildizi asosida paydo bo'lgan hisoblanib, mavhum tushunchalarni tinglovchiga yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mahmudov.N., Odilov.Y., Ziyodullayeva.G., O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassaslari o'quvchilari uchun darslik.-T,2018, 79-b.
2. Nurmonov.A. , Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo., 2013y,190-b
3. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.
4. Файзиева, А.А., 2022. Metaforalar tarjimasining lingvomadaniy МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(2)
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: Univ. of Chicago Press, 1980 (2008).
6. I.A.Galperin. Stylistics. Page 13
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: Univ. of Chicago Press, 1980 (2008).
8. A.G. Pol " Metaphors in lexicology" Cambridge: Cambridge University Press, 1993.
9. Файзиева, А.А., 2022. Metaforalar tarjimasining lingvomadaniy МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(2).
10. . Fayziyeva A. Linguistic and conceptual pictures of the world. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 2022 Jun 2;10(10).



## "MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



11. Djalilova, Z. (2022). Ingliz she'riyatida inson obrazining gullar orqali tasvirlanishi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 26(26).  
[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8567](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8567)